

BADIIY GIMNASTIKACHILARNING BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK DAVRIDA KOORDINATSIYA QOBILYATINING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Kurbanova Durдона Salaxitdinovna
Andijon davlat universiteti FJMS kafedrası dotsenti

Annotatsiya: keltirigan mashqlar orqali yosh badiiy gimnastikachilarni koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish samaraliroq amalga oshiriladi. Bu esa yosh sportchilarni musobaqa jarayonlarida mashqlarni muvaffaqiyatli bajarishlari va yaxshi natijalarga erishishlariga yordam beradi.

Kalit soʻzlar: badiiy gimnastika, sezish, sezgisi, psixomotorli, psixofizik, harakatlantiruvchi, psixomotor, moslashuvchanlik, tezlik, sakrash qobiliyati.

Аннотация: развитие координационных способностей юных художественных гимнасток более эффективно осуществляется посредством следующих упражнений. Это помогает юным спортсменам успешно выполнять упражнения и достигать высоких результатов на соревнованиях.

Ключевые слова: художественная гимнастика, восприятие, интуиция, психомоторика, психофизика, движение, психомоторика, гибкость, скорость, прыгучесть.

Abstract: the development of coordination skills of young rhythmic gymnasts is more effective through the following exercises. This helps young athletes to successfully perform exercises and achieve good results during competition.

Key words: rhythmic gymnastics, perception, intuition, psychomotor, psychophysical, movement, psychomotor, flexibility, speed, jumping ability.

Dunyoda badiiy gimnastika sport turlari bilan shugʻullanuvchi yosh qizlar uchun mashgʻulot yuklamalarining tanaga taʼsiri muammolari, ularni boshqarish, shuningdek maxsus- harakatli tayyorgarligini rivojlantirish va takomillashtirish uchun samarali vositalarini tanlashda eng maqbul oʻquv dasturlarini yaratish boʻyicha tadqiqotlar davom etmoqda.

Zamonaviy badiiy gimnastika faqat harakatlanish qobiliyatlarining emas, balki sensomotor qobiliyatlarning ham rivojlannish darajasiga yuqori talablarni taqdim etadi (ritmni “sezish”, makonda holat- yoʻnalishni chamalash “sezgisi”, muvozanatni “sezish” va shu kabilar.) Biz koordinatsiya qobiliyatlari muammolari boʻyicha maxsus adabiyotlarni tahlil qilib [1,3], propriotseptiv sezuvchanlikka asoslangan qobiliyatlar yetarlicha xilma xilligini aniqladik [35].

1-rasm



Sport amaliyotida ular “ixtisoslashgan idrok” deb belgilanadi (1-rasm). O‘ta sezuvchanlikning ushbu toifasi sportning har xil turlari uchun o‘ziga xos namoyon bo‘ladi, chunki amallarni bajarish jarayonida har bir muayyan vaziyatda faoliyatni tartibga soladi. Ixtisoslashgan idrok asosida bajariladigan harakatlar o‘ta aniqligi va harakat hissiyotlarining nozikligi bilan ajralib turadi.

Ixtisoslashgan adabiyotlar analizi [4] harakat faoliyatiga tegishli bo‘lgan qobiliyatlarni belgilab berish uchun, har xil: jismoniy, qo‘zg‘atuchi, harakatga soluvchi, harakatlantiruvchi, psixomotorli, psixofizik va sh.k. tushunchalar ishlatiladi, degan xulosa chiqarishimizga imkon berdi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatida “harakatlantiruvchi” va “psixomotor” qobiliyatlar atamaları keng qo‘llaniladi. Ikkala atama ruhiy va biologik jarayonlarning o‘zaro aloqa birligi tasavvurlarini, hamda harakatlantiruvchi vazifalar yechimida ularning birgalikdagi ishini kuchaytiradi. Insonning harakat ko‘rinishlari ruhiy sozlanishga bog‘liqligi psixomotorika bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda badiiy gimnastikada quyidagi asosiy psixomotor qobiliyatlar ajratiladi: kuch, koordinatsiya, moslashuvchanlik, tezlik, sakrash qobiliyati, muvozanatni saqlash, chidamlilik, makonda yo‘nalish tanlash.

Koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish qobiliyatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini aniqladi. **Birinchi bosqich** maxsus - harakat qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu buyumsiz mashqlar texnikasining ko‘nikma va bilimlarini egallashga imkon beradi. **Ikkinchi bosqich** maxsus - harakat tayyorgarligi bilan bog‘liq holda ixtisoslashtirilgan his-tuyg‘ularni tarbiyalashga qaratilgan.

Harakat qobiliyatlari uchun tanlanagan mashqlar ketma-ketligi:

1. Harakatni koordinatsiyalash-vizual analizator bilan kompleks (ballar); 2. Harakat koordinatsiyasi-vizual analizatorsiz kompleks (ballar). 3. Aniqlik – nishonga uloqtirish (marta soni); 4. Halqa bilan ishlashning jozibadorligi (marta soni); 5. Arqon bilan ishlashda jozibadorlik (marta soni); 6. Harakat tezligi–20 soniya davomida qarsak chalish (marta soni); 7. Tezkor reaksiya-tayoqni ushlab/ilib olish (sm); 8. Vestibulyar reaksiyalarning barqarorligi-to‘pni urish/qaytqirish (marta soni); 9. Vestibulyar reaksiyalarning barqarorligi-to‘pni otish (marta soni); 10. Portlash kuchi– ikkala oyoqda itarilish (sm); 11. Umurtqa harakatchanligi-oldinga (sm); 12. Umurtqa harakatchanligi - orqaga (sm); 13. Tos-son harakatchanligi-shpagat (sm); 14. Ikkala qo‘lning yelkalardagi harakatchanligi-gimnastika tayoqchasi bilan burilish (sm).

Maxsus idrok uchun talangam mashqlar ketma-ketligi:

1. Vaqtni his qilish - arqonda sakrash, 10 soniya vaqt oralig‘ida (sek) bajarish; 2. Fazoda orientatsiya hissi (ballar); 3. Vizual analizator ishtirokida ikki oyoq uchlaridagi muvozanat - Biryuk testi (sek); 4. Vizual analizator ishtirokisiz ikki oyoq uchlaridagi muvozanat - Biryuk testi (sek); 5. Dinamik muvozanat hissi, burilish - o‘ng oyoqda, og‘irlik markazini siljitmasdan (marta soni); 6. Dinamik muvozanat hissi, burilish – chap oyoqda, og‘irlik markazini siljitmasdan (marta soni); 7. Dinamik muvozanat hissi, burilish - o‘ng oyoqda, og‘irlik markazini siljitib (marta soni); 8. Dinamik muvozanat hissi, burilish - chap oyoqda, og‘irlik markazini siljitib (marta soni); 9. Yon tomonga yumalashlar (marta soni); 10. Sakrash – siltanib 360^o ga burilish bilan; 11. Predmetni his qilish - to‘pni otib, so‘ngra ilib olish orqali.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirigan mashqlar orqali yosh badiiy gimnastikachilarni koordinatsiya qobilyatlarini rivojlantirish samaraliroq amalga oshiriladi.

Bu esa yosh sportchilarni musobaqa jarayonlarida mashqlarni muvaffaqiyatli bajarishlari va yaxshi natijalarga erishishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Biryuk E. V., Ovchinnikova N. A. Guba V.P.(tahriri ostida.) Особенности физической подготовки: метод. рекоменд. Moskva, Olympia Press, 2007y.
2. Vengerova, N.N Спортивно-педагогическое тестирование в гимнастике: учебное пособие / N. N. Vengerova; P.F. Lesgaft nomidagi Milliy Davlat jismoniy tarbiya va sport Universiteti . Sankt-Peterburg, 2009y. 116 b.
3. Matyugin I.Yu., Ribnikova I.K. Методы развития памяти, образного мышления, воображения / Matyugin I.Yu., Ribnikova I.K.– Москва: Эйдос, 2012. -159 с
4. Orlova N.A. Время реакции как показатель координационной сложности физического упражнения/ В: Теория и практика физической культуры.М. 2005.- № 3, - С.54-58.